

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK:336.221:332.6 (575.1)

KAMILOV ABROR ANVAROVICH

**SOLIQQA TORTISH MAQSADIDA KADASTR QIYMATLARINI
ANIQLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish
uchun tayyorlangan**

DISSERTASIYA

Ilmiy rahbar:

i.f.d.prof. Xudoyqulov Sadriddin Karimovich

Toshkent -2025

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
I BOB. SOLIQ MA'MURIYATCHILIGIDA KO'CHMAS MULKNI KADASTR QIYMATINING ANIQLASHNING IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI.....	15
1.1-§ O'zbekistonda ko'chmas mulkni kadastr qiymati bo'yicha mol-mulk solig'ining joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi.....	15
1.2-§ Raqamli infratuzilmani rivojlantirish sharoitida kadastr qiymatini aniqlash mexanizmining soliq ma'muriyatchiligi xususiyatlari.....	33
1.3-§ Xorijiy mamlakatlarda ko'chmas mulkni kadastr qiymatining soliqqa tortish mexanizmini O'zbekiston soliq tizimiga uyg'unlashtirish masalalari.....	50
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	68
II BOB. RAQAMLI IQTISODIYOTNI TAKOMILLASHTIRISHDA KADASTR QIYMATLAR ASOSIDA SOLIQQA TORTISH OMILLARNI TAHLIL QILISH.....	70
2.1-§ Kadastr qiymati asosida soliqlarni hisob-kitob qilish va tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili.....	70
2.2-§ Kadastr qiymat asosida soliqqa tortish va uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ta'siri bilan bog'liq bo'lgan muammolar.....	99
2.3-§ Kadastr qiymatni aniqlash mexanizmiga nisbatan soliq hisoblash uchun shartli belgilangan qiymatlar tahlili	105
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	123
III BOB. SOLIQ MA'MURIYATCHILIGIDA KADASTR QIYMATINING ANIQLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	125
3.1-§ Ko'chmas mulkning davlat kadastr bahosi asosida mol-mulkiga soliq solishni takomillashtirishning uslubiy yondashuvlari.....	125
3.2-§ Kadastr hisobini to'liq shakllantirish orqali soliq bazasini kengaytirish va jarayonlarni soddalashtirish masalalar.....	142
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	159
XULOSA.....	161
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	165

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni¹ talablarida Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ko‘chmas mulk obyektlarining kadastr qiymatini ularning bozor bahosiga asoslangan holda aniqlash, har bir egalik qiluvchiga (foydalanuvchiga) tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlari to‘g‘risida to‘liq va ishonchli ma’lumotlar bazasini yaratish uchun axborot tizimini takomillashtirish, ko‘chmas mulk obyektlarini ularning bozor bahosidan kelib chiqqan holda sifatli baholashdan o‘tkazish metodikasini ishlab chiqish² belgilangan.

Mamlakatimizda davlat byudjetining ikki pog‘onaligi ya’ni, davlat va mahalliy byudjet mavjudligini hisobga olsak, ularning har birida byudjetni to‘ldirishga xizmat qiladi. Mahalliy byudjetlar haqida gapirganda, Yevropa mamlakatlari mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarida aks etgan xalqaro demokratik tamoyillarga rioya qilishini ta’kidlash lozim. Mahalliy boshqaruvning muhim prinsiplardan biri byudjetning federal tamoyiliga asoslanadi. Buning mazmuni shundan iboratki, mahalliy hokimiyat organlari ayrim funksiyalarni o‘z daromad manbalari hisobidan bajarishi lozim. Ushbu daromad manbalari ichida eng asosiy va keng tarqalganlaridan biri ko‘chmas mulk solig‘i hisoblanadi.

Soliq ma’muriyatchiligini ta’minlash bo‘yicha bugungi kunda soliq amaliyotining raqamli platformalariga o‘tish, soliq xizmati organi xodimlari malakasini oshirish uchun sarmoya kiritish, aholi o‘rtasida mol-mulk va yer soliqlarini to‘lashning ahamiyati va uning jamiyatga keltiradigan foydalari haqida tushuntirish ishlarini olib borish, huquqiy asoslarini isloh qilish, qolaversa, Jahon Banki va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorliklar o‘rnatishga oid ilmiy tadqiqotlar dolzarb vazifaga aylangan.

O‘zbekistonda jadal ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar olib borilayotgan bir sharoitda, davlat soliq siyosatining cheklangan tabiiy resurslar jumlasiga kiruvchi muhim boylik hisoblangan mulk va yer resurslaridan iqtisodiy taraqqiyot

¹ www.lex.uz. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 03.12.2020 йилдаги ПФ-6121-сон.

² www.lex.uz. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йилнинг 3 декабридаги ПФ-6121-сонли Фармонининг 9-банди.

maqsadlarida samarali foydalanish va uning tabiiy unumdorligini saqlab qolgan holda kelajak avlodlarga yetkazib berish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shu jihatdan bugungi kunda mulk va yerlardan unumli foydalanish va uni talon-toroj qilishning oldini olish masalasiga prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Har qarich yer – davlatning, demakki, xalqimizning bebaho boyligi hisoblanadi. Undan noqonuniy, o‘zboshimchalik bilan foydalanishga hech kimning haqqi yo‘q”³ deya ta’kidlagan fikri mulk va yerga egalik qiluvchi subyektlarni o‘zlariga turli huquq bo‘yicha tegishli bo‘lgan mulk va yerlardan samarali foydalanishga va oqilona munosabatda bo‘lishga undaydi. Unumdor yerlarni sotish, noqonuniy tarzda uy-joy qurib olish, shartnomada ko‘zda tutilgan ekinlarni ekishdan bo‘yin tovlash kabi holatlari xalqning milliy boyligi hisoblangan yerdan unumli foydalanish bo‘yicha mas’uliyatini kuchaytirish choralari yer solig‘i va uning ma’muriyatchiligini oqilona tashkil etishga e’tibor bilan yondashishni talab qiladi.

Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentyabrdagi “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6061-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi 71-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni

³ Мирзиёев Ш.М. (2019) Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ. 64 б.

ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁴gi 2021-yil 8-iyundagi PF-6243-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-sentyabrdagi "Tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashning hamda davlat byudjeti daromadlarini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 720-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-yanvardagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 22-son qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Soliqqa tortish maqsadida kadastr qiymatlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar tahlili hamda mol-mulk va yer resurslardan samarali foydalanish, ularni soliqqa tortish bilan bog'liq keng qamrovli ilmiy izlanish va tadqiqotlarning boshlanishi uzoq o'tmishga borib taqalib, hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda. Har bir izlanuvchi o'zining tadqiqotlarida mol-mulk va yer resurslaridan samarali foydalanishni soliqlar vositasida tartibga solish yuzasidan o'ziga xos nazariy qarashlar va fikrlarni keltirib o'tgan. Xususan, mol-mulk va yer solig'i belgilanishining iqtisodiy asoslari haqida fiziokratlar namoyondasi hisoblangan Quesnay, I.A.Mayburov, Yefimova Ye.G., Pospelova Ye.B., D.Rikardo, D.E.Wildasin, J.Berbel, S.Sen, Lindholm, Bentick, Tideman, Needham, R. M. Hurd va R. M. Haig, Bentik, Youngman, J.M., Lindholm, R.W. Alonso, W.A., Musgrave R.M., Lampert Ya., Samuelson P., W.Nordhous, S.Barda. va L.Pavlovoy,

⁴ 2021-yil 8-iyundagi PF-6243-sonli O'zbekiston Respublikas Prezidentining Farmoni

X.Volleberg, P.Jliek, X.Global, V.Panskov, G.Agasandyan, I.Gasanov, F.Ereshko, A.Bryzgalin singari xorijlik olimlar tomonidan amalga oshirilgan⁵. Shu bilan birga o‘zbek olimlaridan E.F.Gadoev, Sh.A.Toshmatov, T.S.Malikov, N.H.Xaydarov, A.S.Jo‘rayev, N.X.Jumayev, N.R.Quziyeva, B.E.Toshmurodova, Z.N.Qurbonov, S.K.Xudoykulov, N.B.Ashurova, U.X.Normurzayev, J.J.Urmonov, I.M.Niyazmetov, D.Qurbanov, G‘.Safarov, Z.Shoxujaeva, B.Xasanov, O.G‘aybullaev, U.O‘roqov, O.Abduraxmonov, F.Bozorov, A.M.Amanov, singari olimlar ham O‘zbekiston sharoitida mol-mulk va yer resurslarning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, ulardan samarali foydalanishda moliya-kredit mexanizmlarining qo‘llanilishi, jumladan, ularni soliqqa tortish masalalari bilan bog‘liq ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar⁶.

⁵ Quesnay, F. (1756), 'The General Maxims for the Economic Government of an Agricultural Kingdom', in R.L. Meek (1963); Майбуrow И.А. Налоги и налогообложение. Ред. 4-е изд. – М., 2011. — 558 с.; Ефимова Е.Г., Поспелова Е.Б. Налоги и налогообложение: Учебное пособие. – М.: МИИР, 235с. 2014; Smith, A., (1776), The Wealth of Nations, Book 1. Lond. Methuen Co.; Ricardo, D. (1817), 'The Principles of Political Economy and Taxation', Dutton, New York.; Wildasin, D.E. (1982), 'More on the Neutrality of Land Taxation', National Tax Journal, vol. 35, no. 1, pp. 105-108.; Youngman, J.M. (1993), 'The Role of Land Taxation in Tax and Land Policy', Working Paper, Lincoln Institute of Land Policy, Cambridge, MA, United States, pp. 1-7.; Lindholm, R.W. (1965), 'Land Taxation and Economic Development', Land Economics, vol. 41, pp. 121-130.; Alonso, W.A., (1964) Location and land use: toward a general theory of land rent, Harvard University Press, Cambridge.; Musgrave R.M. 1959. The Theory of Public Finance. — NY.: McGraw-Hill, P. 94.; Лампепт Я. 1993. Некоторые современные принципы налогообложения. М.: ГПИТБ, 2-6.; Silvia Appelt, Matej Bajgar, Chiara Criscuolo, Fernando Galindo-Rueda. «Effectiveness of R&D tax incentives in OECD economies» 14 October 2020; Appelt, S, M Bajgar, C Criscuolo and F Galindo-Rueda (2020), «The effects of R&D tax incentives and their role in the innovation policy mix: Findings from the OECD microBeRD project, 2016-19, OECD Science, Technology and Industry Policy Papers, No. 92, OECD Publishing, Paris. Богданова Г.А. Проблемы использования налоговых льгот // Молодой ученый. – 2015. №11. – С. 759-761; Berbel J. et al. (2019) Analysis of irrigation water tariffs and taxes in Europe / WaterPolicy 21 — PP. 806-825.; Brown L, Ayres E. (Edit) The World Watch Reader on Global Environmental Issues. N.Y. — London: W.W. Norton Co., 1998. 358 p.; S.Sen and H.Volleberg. The effectiveness of taxing the carbon content of energy consumption. Journal of Environmental Economics and Management 92 (2018) 74–99. (<https://www.sciencedirect.com>), Gleick P. H. Global freshwater resources: soft-path solutions for the 21-th century // Science. 302. No5650. 2003. P. 1524-1527., Пансков В.Г. Налогообложение природных ресурсов: проблемы и пути решения. Журнал Экономика и бизнес, 2018, ст. 91-104., Агасандян Г.А., Гасанов И.И., Ерешко Ф.И. Новые подходы в проблеме комплексного управления водными ресурсами. – М.: ВЦ РАН, 2003. -54 с.; Буздалов И. Природная рента как категория рыночной экономики. // Вопросы экономики. – Москва, 2002. - No3. – С.24-35.;

⁶ Гадоев Э.Ф. ва бошқ. Билвосита солиқлар: қўшилган қиймат солиғи, акциз солиғи. – Т.: Norma, 2011. – 327 б.; Маликов Т.С., Хайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Ўқув қўлланма. – Т.: Iqtisod-moliya, 2009. 556 б.; Ашурова Н.Б. Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. И.ф.д. диссертацияси. – Т., 2018. — 247 б.; 68. 71. Jo‘rayev A., Shirinov S., Soliq statistikasi va prognozi: O‘quv qo‘llanma/ O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi; Т.:“IQTISOD-MOLIYA”, 2015. –392б.; Худойкулов С.К., Солиқ тушумларини прогноз қилиш методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. дисс. автореферати. Т., 2019. 77 б.; 61. Курбанов З.Н., “Солиқ ҳисоби ва аудитининг назарий ва методологик асослари” дис. И.ф.д. Тошкент.: БМА, 2008. 272 б.;Нормурзаев У.Х. Солиқ имтиёзларининг самарадорлиги: назария, методология ва амалиёт. Дисс. автореферати. – Т., 2022. – 20. б Ниязметов И.М. Солиқ юқини оптималлаштириш: назария, услубият ва амалиёт. Монография. – Т.: Молия, 2016. 192 б.; Сафаров Ф.А. – ТМИ мустақил изланувчиси, и.ф.н. Табиий ресурс ва мол-мулкларни солиққа тортишни такомиллаштириш (Safarov, F. (2019) "IMPROVING THE TAXATION OF NATURAL RESOURCES AND

Biroq, yuqoridagi izlanishlar bizning fikricha, bugungi kunda respublikamizda soliqqa tortish maqsadida kadastr qiymatlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi bir qator muammolar uchun yechim bo'lishda yetarli emas va bu ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida soliq to'lovchilarni soliqqa tortish maqsadida kadastr qiymatlarini aniqlashga xizmat qiladigan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Soliqqa tortish tizimida soliq to'lovchilarni kadastr qiymatlarini iqtisodiy mohiyati va tarkibini o'rganish, ularni nazariy va amaliy jihatlariga alohida baho berish;

kadastr qiymatlarini aniqlash mexanizmlariga ta'sir o'tkazuvchi omillarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish hamda baho berish;

kadastr qiymatlarining byudjet daromadlarini shakllantirishda tutgan o'rni va rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etish;

soliqqa tortishda kadastr qiymatlariga ta'sir etuvchi mexanizmlarni aniqlash;

soliqqa tortish maqsadida kadastr qiymatlarini aniqlashdagi mavjud muammoli masalalarni aniqlash;

jismoniy va yuridik shaxslardan mol-mulk va yer solig'ini hisoblashda kadastr qiymatini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqish;

kadastr qiymatlarini aniqlashda soliqlar bo'yicha qo'llaniladigan imtiyozlarni tahlil qilish;

xorij mamlakatlarida soliq to'lovchilarni soliqqa tortish maqsadida kadastr qiymatlarini aniqlash mexanizmlarini tadqiq etish hamda ilg'or tajribalarni O'zbekiston amaliyotiga joriy etish bo'yicha ilmiy jihatdan asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib, O'zbekistonda mol-mulkka ega bo'lgan soliq to'lovchilarning soliqqa tortish maqsadida hisoblanuvchi kadastr qiymatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini soliq to'lovchilarni soliqqa tortishda kadastr qiymatlarini aniqlash mexanizmlari orqali vujudga keladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik, ilmiy abstraksiyalash, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, guruhlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

chet el yuridik yoki jismoniy shaxslarining mulkida bo'lgan ko'chmas mulk realizatsiya qilingan taqdirda, bu ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish ko'chmas mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlardan foyda solig'i yuridik shaxs tomonidan yoki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i jismoniy shaxs tomonidan to'langanidan keyin amalga oshirilishi taklifi asoslangan;

mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar mazkur mol-mulkni realizatsiya qilish summasining hujjatlar bilan tasdiqlangan uni olish qiymatidan oshgan qismi sifatida, mazkur qiymatni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda mol-mulkni realizatsiya qilish qiymati, ko'chmas mulk bo'yicha esa – kadastr qiymati hamda realizatsiya qilish narxi o'rtasidagi ijobiy farqni daromad sifatida aniqlash taklifi asoslangan;

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi bo'yicha Soliq summasi mol-mulkning 1-yanvardagi holatiga ko'ra

boʻlgan kadastr qiymatidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilishi boʻyicha taklifi asoslangan;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq boʻyicha soliq bazasini Toshkent shahrida – ikki million besh yuz ming soʻm, Nukus shahrida va viloyat markazlarida – bir million besh yuz ming soʻm va boshqa shaharlarda va qishloq joylarda – bir million soʻm miqdorlarda 1 kv. metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatdan past boʻlishi mumkin emasligi toʻgʻrisidagi taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi boʻyicha koʻchmas mulkka boʻlgan huquqlarni davlat roʻyxatidan oʻtkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining kadastr qiymati soliq bazasi hisoblanishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan;

chet el yuridik yoki jismoniy shaxslarining mulkida boʻlgan koʻchmas mulkka boʻlgan huquqlarini davlat roʻyxatidan oʻtkazish koʻchmas mulkni realizasiya qilishdan olingan daromadlardan foyda soligʻi yuridik shaxs tomonidan yoki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi jismoniy shaxslar tomonidan undirish mexanizmining umumiy tamoyillari ishlab chiqilgan;

mol-mulkni realizasiya qilishdan olingan daromadlar mazkur mol-mulkni realizasiya qilish summasining hujjatlar bilan tasdiqlangan uni olish qiymatidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi. Mazkur qiymatni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud boʻlmagan taqdirda, mol-mulkni realizasiya qilish qiymati, koʻchmas mulk boʻyicha esa – kadastr qiymati hamda realizasiya qilish narxi oʻrtasidagi ijobiy farq mulkiy daromadlar deb eʼtirof etilishi maqsadga muvofiqligi taklifi berilgan;

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻini hisoblab chiqarish va toʻlash tartibi boʻyicha Soliq summasi mol-mulkning 1-yanvardagi holatiga koʻra boʻlgan kadastr qiymatidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilishi boʻyicha taklif berilgan;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq boʻyicha soliq bazasi soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq obyektlarga nisbatan soliq bazasi